

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

N.M.O‘RINOVA, D.A.YO‘LDOSHEVA

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

O‘QUV QO‘LLANMA

Farg‘ona-2024

UO‘K:

KBK:

N.M.O‘rinova, D.A.Yo‘ldosheva.

Pedagogik akmeologiya//O‘quv qo‘llanma– Farg‘ona, 2024. 156 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada pedagogik akmeologiyaning nazariy asoslari, tarixi va mazmuni yoritilgan. Shu bilan birga qo‘llanma fan bo‘yicha mustaqil ta’lim topshiriqlari, glossariy, hamda test savollari to‘plamini ham o‘z ichiga qamrab oladi.

O‘quv qo‘llanma oliy ta’limning 60110100-“Pedagogika” yo‘nalishi talabalari uchun “Pedagogik akmeologiya” fanidan tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘quv qo‘llanmadan “Maktabgacha ta’lim” va “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ham foydalanishlari mumkin.

В данном учебном пособии освещены теоретические основы, история и содержание педагогической акмеологии. При этом пособие включает в себя как самостоятельные учебные задания по предмету, так и глоссарий, а также набор тестовых вопросов.

Учебное пособие рекомендовано для студентов направления высшего образования 60110100-“Педагогика” по дисциплине “Педагогическая акмеология”. Учебное пособие также может быть использовано учащимися, обучающимися по направлениям “Дошкольное образование” и “Начальное образование”.

This tutorial covers the theoretical foundations, history and content of pedagogical acmeology. At the same time the guide also covers independent educational assignments in science, a glossary, as well as a set of test questions.

The instruction is recommended for students of the 60110100-“Pedagogical” direction of higher education in the subject of “Pedagogical acmeology”. The curriculum can also be used by students studying in “Preschool” and “Primary Education”.

Taqrizchilar:

B.B.Djalolov

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.G‘.Obidov

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

***O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug‘i bilan nashrga tavsiya etilgan***

№ 218-479

MUNDARIJA

Kirish	6
1-mavzu Pedagogik akmeologiya predmeti va uning fanlar tizimidagi o‘rni.....	8
2-mavzu Pedagogik akmeologiyaaning hozirgi kundagi rivojlanishi va uning boshqa fanlar bilan aloqasi	12
3-mavzu Yetuk shaxs: individ, shaxs va subyektiv-faoliyat taraqqiyotining o‘zaro ta’siri va muvofiqligi	20
4-mavzu Pedagogik akmeologiyaaning metodologik prinsiplari va yondashuvlari	33
5-mavzu Markaziy Osiyo va G‘arb mutafakkirlarining qarashlarida insonning ijtimoiy-axloqiy kamoloti, yetuklik g‘oyalari va akmeologik nazariyalar	39
6-mavzu Pedagogik akmeologiyaaning asosiy yo‘nalishlarini turkumlash	44
7-mavzu Pedagogik akmeologiya fani doirasidagi tadqiqotlar	49
8-mavzu Pedagogik akmeologiyaaning asosiy muammolari. Kasbiy kompetentlilik	55
9-mavzu Professionalizm akmeologiyaaning muhim tushunchasi sifatida.....	61
10-mavzu Pedagogik mahorat “akme”ning turi sifatida	76
11-mavzu Professional yetuk akmeshaxs rivojida oila institutining o‘rni.....	83
12-mavzu Akmeologik texnologiyalarning o‘ziga xosliklari	91
13-mavzu Pedagogik akmeologiyada modellashtirish	100
14-mavzu Psixologik treninglar akmeologik muammolarni hal etish vositasi sifatida	107
15-mavzu Pedagoglarning innovatsion faoliyatida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish	111
16-mavzu Pedagog shaxsini rivojlantirishda kreativ texnologiyalarning o‘rni.....	115
Umumiy xulosa	121
Mustaqil ta’lim topshiriqlari	134
Glossariy	143
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	152

Содержание

Введение	6
Тема 1 Предмет педагогической акмеологии и ее место в системе наук.....	8
Тема 2 Современное развитие педагогической акмеологии и ее связь с другими науками.....	12
Тема 3 Зрелая личность: взаимодействие и совместимость индивида, личности и субъективно-деятельностного прогресса.....	20
Тема 4 Методологические принципы и подходы педагогической акмеологии.....	33
Тема 5 Социально-нравственное созревание человека, идеи зрелости и акмеологические теории во взглядах мыслителей Средней Азии и Запада.....	39
Тема 6 Категоризация основных направлений педагогической акмеологии.....	44
Тема 7 Исследования в рамках педагогической акмеологии.....	49
Тема 8 Основные проблемы педагогической акмеологии. Профессиональная компетентность.....	55
Тема 9 Профессионализм как важное понятие в акмеологии.....	61
Тема 10 Педагогическое мастерство как вид “акме”	76
Тема 11 Роль института семьи в развитии профессионально зрелой личности.....	83
Тема 12 Особенности акмеологических технологий	91
Тема 13 Моделирование в педагогической акмеологии.....	100
Тема 14 Психологические тренинги как средство решения акмеологических проблем.....	107
Тема 15 Использование игровых технологий в инновационной деятельности педагогов.....	111
Тема 16 Роль креативных технологий в развитии личности педагога.....	115
Общий вывод	121
Самостоятельные образовательные задания	134
Глоссарий	143
Список использованной литературы	152

Content

Introduction.....	6
Theme 1 The subject of pedagogical acmeology and its role in the system of Sciences.....	8
Theme 2 The current development of pedagogical acmeology and its relationship with other disciplines	12
Theme 3 Mature personality: individ, personality and subjective-interaction and compatibility of activity development	20
Theme 4 Methodological principles and approaches to pedagogical acmeology	33
Theme 5 In the views of Central Asian and Western thinkers, the socio-moral maturation of Man, the ideas of maturity and acmeological theories	39
Theme 6 Categorization of the main areas of pedagogical acmeology	44
Theme 7 Research within the discipline of pedagogical acmeology	49
Theme 8 The main problems of pedagogical acmeology. Professional competence	55
Theme 9 Professionalism as an important concept in acmeology	
Theme 10 Pedagogical skill as a type of "akme"	61
Theme 11 The role of the Family Institute in the development of Professional mature akmeshaxs.....	76
Theme 12 Specifics of acmeological technologies.....	83
Theme 13 Modeling in pedagogical acmeology	91
Theme 14 Psychological trainings as a means of solving acmeological problems	100
Theme 15 The use of Game technologies in the innovative activities of educators	111
Theme 16 The role of Creative Technologies in the development of the personality of an educator	115
General conclusion	121
Independent Education assignments	134
Glossary	143
List of literature used	152

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlardan kelib chiqqan holda bugungi kunda ta'limning mohiyati hamda unga bo'lgan e'tibor ham yangilanib bormoqda. Ta'lim tizimidagi islohotlar hamda qadriyatlarning o'zgarishi pedagogik jarayonlarga innovatsion yondashuv va texnologiyalarni faol joriy etishni taqozo etmoqda. Ta'lim jarayoniga tadbqiq etilayotgan innovatsiyalar samarasi pedagogning kreativ kompetentligi va uning rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq. Sarbon deklaratsiyasi (Sarbonne Declaration), Ta'lim barcha uchun dasturi (Education For All (EFA)), Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millenium Development Goals (MDGs)), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konvensiyalari kompetentli yondashuv asosida malakali kreativ mutaxassislarni tayyorlashning innovatsion yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda zamonaviy sharoitlarda bo'lajak pedagoglarning kreativligini rivojlantirishning metodologik va ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, integrativ kasbiy bilim berishning tizimli modellarini ishlab chiqish va natijalarini obyektiv baholash bo'yicha tadqiqotlar AICHI university of Education (Yaponiya), National Institute of Technical Teachers Training And Research (Hindiston), Shaansi Normal University (Xitoy), Princeton university (AQSH), Belfield pedagogical university (Germaniya), National Advice on pedagogical technology (Angliya), Ta'lim akademiyasi (Rossiya), Toshkent davlat pedagogika universiteti (O'zbekiston) kabi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida olib borilmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimining rivojlanish istiqbollari sharoitida bo'lajak pedagoglarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar o'zgarib bormoqda. "O'ZBEKISTON-2030" strategiyasi doirasida pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik vazifalari sifatida belgilab berildi¹.

Talabalik davrida asosiy kasbiy qadriyatlarning rivojlanishi amalga oshiriladi, o'z-o'zini takomillashtirishga bo'lgan shaxsiy ehtiyoj; qaror qabul qilish qobiliyati, javobgarlik, professional ko'nikma va fazilatlarini rivojlantirish shakllanadi. Bunday sharoitda har kim eng yuqori professionallikka erishishi mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni "O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASI

Bugungi kunda davlat va jamiyat bo'lajak pedagoglar oldiga uzluksiz kasbiy rivojlanish vazifasini qo'yimoqda. Bunday rivojlanish jarayoni birinchi navbatda akmeologik yondashuv konsepsiyasi talablari asosida tashkil etiladi. Bu o'z navbatida ijodkor, mustaqil fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarni qat'iy yondashuv asosida hal eta oladigan, kasbiy kompetensiyalarni chuqur egallagan mutaxassislarni taqozo qilmoqda. Bunday pedagogik jarayonni tashkil qilishga asos bo'ladigan o'quv dasturlari akmeologik yondashuv tamoyili asosida yaratilishi lozim.

Akmeologik yondashuv asosida o'qitishning turli jihatlarini va ularning malakasini oshirishni hisobga olgan holda mutaxassislarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ustunlik qiladi.

Akmeologiya sohasida amaliyot insonni takomillashtirish va uning professional faoliyatini optimallashtirish maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

Ushbu qo'llanmaning maqsadi pedagogik akmeologiya tarixi, pedagogik akmeologiyaning nazariy asoslari va mazmuni haqidagi bilimlar bilan talabalarni qurollantirish. Shunga muvofiq, oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

- pedagogning insonparvarlik yondashuvi asosida alohida o'quv fanlari orqali talabalar shaxsini rivojlantirishga, kasbiy mahorat cho'qqilariga erishishga, shuningdek bo'lajak pedagoglarni pedagogik faoliyatning keyingi bosqichlariga tayyorlashda ularning motivlari, qadriyat yo'nalishlari, maqsadlarini hisobga olgan holda o'z faoliyatining usul va vositalarini tanlashiga yordam berish;

- pedagog shaxsi va faoliyatining darajalari va bosqichlarini, bir professionallik darajasidan ikkinchisiga o'tishning akmeologik texnologiyalarini ochib berish;

- shaxsiy va kasbiy rivojlanish va o'sish trayektoriyasini (akmeogramma) pedagog tomonidan individual ravishda tanlagan kasbiy mahoratga erishish yo'llari, shuningdek, pedagog shaxsiyatining kasbiy deformatsiyasini (emotsional "yonish" va charchoq va boshqalar) bartaraf etish usullarini belgilash.

Shu bilan birga ushbu qo'llanma fan bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlari, glossariyni ham o'z ichiga qamrab oladi. O'quv qo'llanma "Pedagogika", "Maktabgacha ta'lim" va "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Qo'llanmaning o'ziga xosligi shundaki, materialning muhim qismi jadvallar shaklida taqdim etilgan. Bu talabalarga ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim uchun o'quv-uslubiy manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Mualliflar

1-mavzu. Pedagogik akmeologiya predmeti va uning fanlar tizimidagi o‘rni.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiy etgan mamlakatning muvafaqqiyatini belgilab beruvchi omil kadrlarning ijodkorlik faoliyatlarini yuqori “cho‘qqi”larga olib chiqish bilan uzviy bog‘liq. Pedagoglar tabiatini o‘zgartiradigan, ular shaxsini tarkib topishiga ta’sir qiladigan muhim fanlardan bir – bu pedagogik akmeologiya fanidir. Aniqlanishicha, inson shaxsining tarkib topishiga ta’sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishi hodisasidir. Ma’lumki, inson shaxsi juda murakkab psixologik fenomen bo‘lib, u kishining individual hayoti davomida ma’lum konkret omillarning ta’siri ostida asta-sekin tarkib topadi. Shu bois ham, akmeologiya - shaxsning rivojlanish va komillikka erishish jarayonini o‘rganuvchi maxsus fan hisoblanadi.

Akmeologiya (yun.akme-yetuklik, cho‘qqi, kamolot, yuksalish, logos-ta’limot)- shaxsning kasb-hunarni egallashda yuksak cho‘qqiga erishishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganuvchi fan. Akmeologiya haqidagi dastlabki qarashlar XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan².

Akmeologiya (grekcha «akme –cho‘qqi, yuqori pog‘ona, gurkiratuvchi kuch» ma’nolarini bildiradi) – ilmu-fanning shunday yangi tarmog‘iki, u insonni o‘z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishining kompleks masalalarini o‘rganadi. Ya’ni, u shaxsni o‘z takomili jarayonida, ana shu taraqqiyot va yuksalishning obyektiv hamda subyektiv omillari doirasida tadqiq etadi

Birinchi marta “akmeologiya” tushunchasi 1928-yilda N.A.Ribnikov tomonidan rivojlanish psixologiyasining maxsus bo‘limi-yetuklik yoki balog‘at psixologiyasini belgilash uchun kiritilgan. XX asrning o‘rtalariga kelib, B.G.Ananyev akmeologiyani insonshunoslik fanlari tizimidagi o‘rni va mavqeini belgilab berdi. XX asrning 90-yillarida A.A.Derkach va A.A.Bodalyev rahbarligida Rossiya davlat xizmati akademiyasi huzurida birinchi marta “Kasbiy faoliyat psixologiyasi va akmeologiyasi” kafedrası taskil etildi. 1992-yilda ps.f.d. N.V.Kuzmina, ps.f.d. A.A.Derkach va ps.f.d. A.M.Zimichev tashabbuslari bilan Rossiyaning Sank-Peterburg shahrida “Akmeologiya fanlari akademiyasi” ilmiy jamiyati tashkil etildi. 1995-yilda ps.f.d. A.M.Zimichev tashabbusi bilan akmeologik yo‘nalishdagi birinchi oliy o‘quv yurti- Sank-Peterburg psixologiya va

² Pedagogika:ensiklopediya. I jild/T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti.-Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015, 45-46-betlar

akmeologiya instituti tashkil etildi va faoliyat olib bormoqda. XX asrning oxirlaridan boshlab akmeologiya o'quv predmeti sifatida jahonning turli mamlakatlari o'quv jarayoniga tatbiq etila boshlandi.

Pedagogik akmeologiya – bu amaliy fan bo'lib, uning predmetlari va o'qituvchilarning kasbiy darajasi, o'qituvchining kasbiy yetukligi va shaxsiyatining cho'qqilarga chiqish shartlari va shakllari (N.V.Kuzmina). Ta'limning akmeologiyasi, o'z navbatida, yuqori sifatli ta'lim tizimiga erishish va o'quv jarayoni subyektlari: o'qituvchi va talabaning rivojlanishi uchun sharoitlarni o'rganadi.

Ilmiy jamoatchilikka ma'lum pedagogik-psixologik nazariyalarda e'tirof etilishicha, akmeologiyaning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi A.A.Derkach, N.V.Kuzmina, V.N.Maksimova, A.A.Bodalyev, R.G'.Safarova, M.X.Mahmudov, N.Muslimov, B.B.Ma'murov kabi taniqli olimlar nomi bilan bog'liq.

Bu pedagog olimlar tadqiqotlarining dastlabki bosqichlarida akmeologiya o'qituvchi faoliyatining kasbiy mahorati nuqtai nazaridan o'rganilgan. Keyinchalik turli sohalarda ham kasbiy yetuklikning yuqori cho'qqisiga erishish maqsadida **akmeologik yondashuv** tatbiq etila boshlandi.

Jumladan pedagogik akmeologiya, xarbiy akmeologiya, boshqaruv akmeologiyasi, tibbiyot akmeologiyasi, faoliyat akmeologiyasi, iqtisodiy akmeologiya, huquq akmeologiyasi singari bir qator yo'nalishlar jadal rivojlandi va rivojlanmoqda.

Shaxsning o'z-o'zini ijodiy namoyon qilishini anglatuvchi akmeologik tushuncha qadimgi faylasuf va mutafakkirlar Platon, Leonardo da Vinchi, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband, V.S.Solovyev, N.O.Losskoy, N.I.Pirogov, V.M.Bexterov faoliyatlari bilan ham chambarchas bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda, akmeologiyaning obyektini insonning pedagogik, tibbiy, muhandislik, harbiy, jismoniy va boshqa faoliyat sohalaridagi yetuklik mahorati, deb belgilash mumkin³.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlaridagi akmeologik g'oyalarning asosiy mohiyati, axloqiy kamolot va mukammallik haqidagi g'oyalari ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot, falsafa, diniy fikrlar taraqqiyoti insoniyat tafakkur xazinasiga qo'shilgan katta hissa bo'lib, asrlar mobaynida avlodlarimizni o'zining sermazmunligi, universalligi va insonparvarligi bilan hayratga solgan. Asosan, O'rta Osiyoda qadimdan hunar egallashga katta e'tibor berilganligiga

³ B.B.Ma'murov. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni pedagogic faoliyatga tayyorlash. Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya", 2017, 10-11-betlar.

allomalarimizning asarlarida alohida urg'u beriladi. Shuning bois, etikdo'z, hattot, kulol, kandakor, temirchi, telpakdo'z, tijoratchi va boshqa kasblarning tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Vaqt va zamon o'tishi bilan ular rivojlanib mukammallashgan. Ayni kunda bu kasblar takomillashib ularning zamonaviy ko'rinishlari namoyish bo'lmoqda. Kasb egalari esa o'z ishlarining ustasi, bilimdoni sifatida egallagan kasb-korlikning akme darajasiga yetish uchun harakat qilayotganliklarining guvohi bo'lmoqdamiz.

Abu Ali ibn Sinoning qarashlarida akmeshaxs tarbiyasining amalga oshirilishida shaxsiy ibratning ma'qulligi uqtiriladi. Uning fikricha, agar oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, u o'z a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo'shnilarga, mahalla-kuyga ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeyidan qat'i nazar, ularning birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi Ibn Sino. Ota-ona davlat boshlig'imi, yoki oddiy fuqaromi, baribir, bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo'lmoqlari lozim.

Beruniyning bilish to'g'risidagi ta'limoti uning durdona asarlarini tadqiq etuvchilar e'tiborini o'ziga jalb etadi. Uning fikricha, bolaning bilimi soddadan murakkabga qarab boradi, bu yoshlikdan (10—12 yoshlar) boshlanadi. Bu bilan alloma kishilardagi tug'ma qobiliyatni, tug'ma iste'dodni nazarda tutgan. Shuningdek, olim ta'lim-tarbiyada irsiyat, ya'ni ota-onadan o'tadigan biologik «meros»ga alohida e'tibor bergan.

N.V.Kuzminaning fikricha, akmeologiya-insonning kasbiy yetuklik jarayonida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish qonuniyatlari, shart-sharoitlari, omillari va stimullarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.

A.A.Derkach, A.A.Bodalyevlar esa akmeologiya ijtimoiy, gumanitar hamda texnik fanlar kesimida paydo bo'lib, insonning yetuklik davrida o'z kasbiy yo'nalishida yuqori darajadagi yutuqlarga erishish qonuniyatlari hamda mexanizmlarini o'rganuvchi fan ekanligini ta'kidlaganlar.

V.N.Maksimova akmeologiyani o'qitish tizimlarini rivojlantirish sharoitida ta'lim jarayonlari subyektlarining o'z-o'zini takomillashtirishi to'g'risidagi fan sifatida ta'riflagan.

Akmeologiya- insonning balog'at, ya'ni hayotining eng sermahsul davri haqida kompleks fan, tor ma'noda esa balog'at yoshidagi shaxsni o'rganuvchi yosh davrlar psixologiyasining bo'limi hisoblanadi. Akmeologiya-mohiyatan yetuk, barkamol insonlarning rivojlanishi to'g'risidagi fan.

Pedagog olim B.B.Ma'murov esa akmeologiya insonning obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida shakllanuvchi jamiyat taraqqiyoti va shaxsiy kamoloti uchun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan xususiyatlarining eng yuqori cho'qqiga erishish qonuniyatlarini o'rganadigan fan deb ta'riflaydi⁴.

Bugungi kunda pedagogik akmeologiyaning vazifalari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- pedagogning insonparvarlik yondashuvi asosida alohida o'quv fanlari orqali talabalar shaxsini rivojlantirishga, kasbiy mahorat cho'qqilariga erishishga, shuningdek bo'lajak pedagoglarni pedagogik faoliyatning keyingi bosqichlariga tayyorlashda ularning motivlari, qadriyat yo'nalishlari, maqsadlarini hisobga olgan holda o'z faoliyatining usul va vositalarini tanlashiga yordam beradi;

- pedagog shaxsi va faoliyatining darajalari va bosqichlarini, bir professionallik darajasidan ikkinchisiga o'tishning akmeologik texnologiyalarini ochib beradi;

- shaxsiy va kasbiy rivojlanish va o'sish trayektoriyasini (akmeogramma) pedagog tomonidan individual ravishda tanlagan kasbiy mahoratga erishish yo'llari, shuningdek, pedagog shaxsiyatining kasbiy deformatsiyasini (emotsional "yonish" va charchoq va boshqalar) bartaraf etish usullarini belgilaydi.

Akmeologik yondashuvning nazariy va uslubiy asoslarini yaratishda A.A.Bodalyev, A.A.Derkach, N.V.Kuzmina, V.N.Maksimova, A.A.Rean, B.G.Ananyev, V.N.Tarasova, S.N.Tolstov, N.V.Kuxarev, G.I.Xozainov, O.S.Anisimov kabi olimlarning hissasi kattadir. Akmeologik yondashuvning umumiy uslubiy tamoyillari orasida olimlar (determinizm tamoyili, rivojlanish tamoyili, insonparvarlik tamoyili), maxsus metodologik tamoyillar (subyekt faoliyati tamoyili, hayot faoliyati tamoyili, potensialni aktuallikka o'tkazish tamoyili, modellashtirish tamoyili, optimallik tamoyili, operatsion-texnologik tamoyil, qayta aloqa tamoyili) ni ajratadilar.

Akmeologik yondashuv hozirgi kunda oliy ta'lim uchun ilg'or va istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. "Akmeologik yondashuvning mohiyati bu shaxsni, shaxsiy faoliyat xususiyatlarini yaxlitlikda eng yuqori darajaga ko'tarishga hissa qo'shish uchun har tomonlama o'rganish va yetuklik davrida bo'lgan yaxlitlikni tiklashdir".

Ta'lim jarayonida akmeologik yondashuv asosida talabalarni ilg'or o'qitish texnologiyalardan foydalanish ta'limni rivojlanishiga imkon beradi, shu bilan

⁴ B.B.Ma'murov. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni pedagogic faoliyatga tayyorlash. Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya", 2017, 12-bet.

birga, ta'lim sifati sezilarli darajada yaxshilanadi, chunki barcha ta'lim subyektlari kognitiv motivlarni tizimlashtiradi, o'rganish ichki ehtiyojga aylanadi.

Zamonaviy oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy g'oyasi ta'lim sifatidir. Akmeologik yondashuv asosida o'qitishda talaba shaxs sifatida shakllanadi, shaxsiyat, uning individual xususiyatlari hisobga olinadi, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar, jamiyatda bo'lish, jamoada munosabatlar qurish qobiliyati rivojlanadi. Akmeologik yondashuvning konseptual asoslari, birinchi navbatda, ta'lim muassasasini rivojlantirish dasturida, oliy ta'limning ilmiy va uslubiy ishlarining yillik rejasi orqali amalga oshirilishi mumkin.

MAVZUNI MUSTAHKAMLOVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Nima uchun pedagogik akmeologiya pedagogning mehnat faoliyatida professionallikka erishishning yo'llari haqidagi fan deyildi?
2. Akmeologiyaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi haqida ma'lumot bering.
3. Akmeologiyaning asosiy yo'nalishlari qaysilar?
4. Akmeogramma ta'rifini aytib bering.
5. Akmeologik yondashuv deganda nimani tushunasiz?
6. Mukammallik cho'qqisi nima?
7. Kasbiy mahorat qanday shakllanadi?
8. Ijodkorlik qobiliyatiga ta'rif bering?

2-mavzu. Pedagogik akmeologiyaning hozirgi kundagi rivojlanishi va uning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Tarix shundan saboq beradiki, qaysi bir davlat yoki jamiyat o'zining moddiy boyliklarini ko'paytirish bilan birga xalqining madaniyatini, insonning ma'naviy ehtiyojlari rivojlanishini o'ylamas ekan, u albatta, inqirozga yuz tutadi. Hozirgi davrda akmeologiya obyekti sifatida yetuk inson aqliy xarakteristikasi, kasbiy faoliyat mahorati belgilari, omillari, inson mahorati qabul qilingan.

Akmeologiyada tadqiqot obyekti yetuk shaxsdir. Akmeologiya fani yetuk inson rivojlanishida obyektiv va subyektiv omillarni, shaxsiy hayoti jarayonida yuksaklikka erishishini o'rganadi. Akmeologiya katta odamlarning barcha yosh davrlarida ijodiy yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishi va o'z kasbiy akmesiga erishish yo'llarini o'rganishda insoniy qadriyatlarga tayanadi. Akmeologiya ijodiy

yetuklik qonuniyatlari va inson akmesiga erishishi haqidagi fan sifatida psixologiya va uning asosiy yo‘nalishlari bilan o‘zaro bog‘langan.

Odam tug‘ilganidan boshlab to umrining oxirigacha bo‘lgan individual rivojlanish yo‘li ko‘pchilik ilmiy klassifikatsiyalarda ya‘ni bolalik, kamolga erishish va qarilikdan tashkil topadi.

Akmeologik izchillik (cho‘qqiga chiqish ilmiga moyillik)-

1) Odam hayot faoliyatining xossasi bo‘lib, uni shaxsiy, kasbiy rivojlanishi va o‘zini - o‘zi takomillashtirishga intilishini xarakterlaydi. Va u ijodiy potensialida va kasbiy mahoratida o‘z ifodasini topadi.

2) tirik organizmni (o‘simlik, hayvonot, odam) va ijtimoiy tizimni (guruh, jamoa, odamlar uyushmasi) – yashashning, mavjudligining ontologik atributidir. (yuzaga kelgandan boshlab, to umrining oxirigacha bo‘lgan individual rivojlanish yo‘li).

U yetilganlik, garmonik, o‘z-o‘zini takomillovchi ko‘rinishdagi akmeformalarning gullab-yashnashga tomon rivojlanishi tendensiyasini xarakterlaydi.

- **ilmiy – metodologik yo‘nalishiga** konkret jamiyatshunoslik (ijtimoiy va gumanitar), tabiiy, texnikaviy fanlar ramkasida ishlab chiqilgan yondoshuvlar, tushunchalar, modellar, metodlar va boshqa konseptual metodik vositalardan foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar yo‘nalishi;

- jamiyatshunoslik – ijtimoiy, (tarix, huquq, iqtisodiy, ijtimoiyshunoslik va boshqalar), gumanitar (falsafa, madaniyatshunoslik, psixologiya, pedagogika va boshqalar) va texnikaviy (kibernetika, axborot texnologiyalari, evristika) fanlar vositasida ijtimoiy jarayonlar va tizimlarni kompleks o‘rganadigan ilmiy bilish sohasi;

- professional mentalitet – ijtimoiy, huquqiy, siyosiy, tarixiy va professional fazoda shaxsni qadriyatlar yo‘nalishi va professional o‘z-o‘zini aniqlashni ifodalovchi professional ong komponenti.

Akmeologiya shu jihatdan falsafa, sotsiologiya, genetika, psixologiya, pedagogika, etika-estetika, madaniyat, gerentologiya kabi fanlar bilan hamkorlikda o‘z yo‘nalishi, muammolari va ularning yechimlarini topishga qaratilgandir.

Etika va akmeologiya fanlari obyektiv qonunlarga asoslangan holda kasb-hunar egalari ijodiy faoliyatining metodologik, texnologik va gumanitar (insonparvarlik) jihatlarini tadqiqot obyekti sifatida o‘rganadi. Estetika va akmeologiya fanlarning asosiy yo‘nalishi bu shaxsning professionalizmini va bilishning yuqori bosqichini egallagan subyekt sifatida mehnatini, muloqotini va ichki ruhiy go‘zalligini o‘rganishdir. Ular insonning turli yo‘nalishdagi

professionalizm kuchini aniqlab beradi. Akmeologiya yo‘nalishdagi predmet fanda o‘zining noan‘anaviy sintezi bilan ajralib turadi. Akmeologiya usullari ham umumiy fanlarda (rivojlanish usullari, texnologiyalar, videotrening jarayonlar) madaniy-ijtimoiy g‘oyalarning tiklanishi, iqtidorlarini ruhiy qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Professional o‘z-o‘zini aniqlash tuzilmasi uning darajasini tashkillovchilari: akmeologik, konseptual, texnologik, refleksiv, kommunikativ, informatsion o‘zaro harakati bilan xarakterlanadi.

XX asrni oxiri va 3 ming yillikni boshida – ekologik, demografik, ijtimoiy, energetik global inqirozli muammolarni paydo bo‘lishida uni ratsional yechimlarini topishda yangi imkoniyatlar va resurslarni axtarish alohida o‘tkirligi, muhimligi ahamiyatiga ega. Buni konstruktiv yo‘llaridan biri innovatsion texnologiyalar yaratish bilan bog‘liq va faqat an‘anaviy ishlab chiqarish sohasidagina emas, balki inson faoliyatining turli sohalarida ham. Turli tuman mutaxassislarni tomonidan oliy professionalizm va ijodiy mahoratni amalga oshirish –bosh muhim insoniy resurs, bu esa o‘z navbatida o‘ta ahamiyatga molik.

Ushbu ijtimoiy madaniy konteks fan – sifatidagi akmeologiyada muhim ahamiyatga kasb etadi. Negaki, barcha professional faoliyatni amalga optimal oshirishni «akme» - formasi sifatidagi professionalizm va ijod cho‘qqisini rivojlantirishning qonuniyatlari va texnologiyalarini o‘rganadi.

«Akme» - forma o‘rganish yutuqli va ijodiy professional mahorat va an‘anasiz chiqish predmet sifatida professional akmeologiyani rivojlantirishni optimal texnologiyalari ishlab chiqish maqsadida akmeologiya tomonidan professional faoliyatni turli mutaxassislar usullarini kompleks o‘rganish olib borilmoqda. Maqsadga erishishda inson xususidagi boshqa fanlar, avvalo, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, genetika, pedagogika fanlari sintezida amalga oshirilmoqda.

Professionalizm va ijodkorlik mahoratning cho‘qqisini rivojlantirish qonuniyatlari va usullari haqidagi tadqiqoti natijasida qo‘lga kiritlgan.

Bozor munosabatlariga o‘tish, huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurish sharoitidagi zamonaviy O‘zbekistonda akmeologiya alohida ijtimoiy talabga ega bo‘ladi. Zero bu yerda ijtimoiy aktiv insonlarga tashabbuskorlik, ishchanlik, tashkilotchilik ijodiy potensialga egalik o‘ta zarurdir.

Akmeologiyadagi tabiiy ilmiy oriyentatsiya. Birinchidan, avvalroq klassik tabiiy fanlarda jihatidan fan standartlariga (eksperimentlarni, faktlarni, mexanizmlarni, qonuniyatlarni, matematik haqiqiyiligini va boshqa ko‘rinishdagi o‘rganish) amal qilishda ifodalanadi. Ikkinchidan, bir qator akmeologik

muammolarni analizlarda (iqtidorlik tabiati, iqtidorlikni genetik va psixologik komponentlari, professional mahoratni tug'ilishidagi psixologik dastlabki shart-sharoit va boshqa) kattalar fiziologiyasi, psixogenetika, mehnat psixologiyasi kabi tabiiy ilmiy fanlarga appelyatsiyasida (shikoyat arizasi) o'z o'rnini bor.

Akmeologiyadagi gumanitar oriyentatsiya – yanada ko'p obrazli hisoblanadi. Inson to'g'risidagi fanlarga mansub akmeologiya o'zini ontologik aniqligiga ega bo'lmoqda: bir tarafdin tarixiy rivojlanishi mobaynida ushbu fanlar bilan genetik o'zaro harakatdagi zaminida, ikkinchi tarafdin ulardan shakllanayotgan mustaqil fan sifatida predmet jihatidan chetga o'tmoqda. Albatta, o'z-o'zidan ma'lumki akmeologiya paydo bo'lmasidan avval psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar tomonidan qadimdan, professionalizm ijod, kattalar ta'limi tadqiq etilgan va bu akmeologik muammoga ko'p jihatdan o'xshash bo'lgan.

Akmeologiyaning texnologik oriyentatsiyasi uni texnik fanlar bilan nafaqat bevosita harakatida (kibernetika, sistemotexnika, informatika va boshqalar) balki unga xos tabiiy bilimlarga amaliy yo'nalgan va unga xos algoritmik aniq standartlardan foydalanishda hamdir. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, bir tomondan akmeologiyani texnik fanlar bilan o'zaro aloqasi o'zidan o'zi amal qilmaydi, balki ekonomika orqali boradi, ularni problematikasi inson omilini texnikada optimallashtirishni ta'minlaydi (misol avtomatlashgan odam mashina tizimlarni boshqarish va boshqalar). Ikki tomonli jarayon gumanitar fanlarni texnologiyalash sifatida misol uchun psixotexnika va infotexnika, innovatika va releksiv (I.N.Semenov, 1994) hamda texnik fanlari gumanizatsiyasini (bionika, sotsionika, simeronika va boshqa) nazarada tutadi.

Zamonaviy ijtimoiy fanlar bilimlar bilan akmeologiya o'rtasidagi aloqa nimada ifodalaniladi - tatbiqiy, ijtimoiymi: fundamental, falsafiy? Xususan falsafa bilan aloqasi ikki asosiy liniyada amalga oshiriladi: dunyoqarash va metodologik. Metodologik jihatdan falsafa akmeologiyani qurilish vositasini kompleks fan sifatida qaraydi. Ya'ni u bir tomondan odam to'g'risidagi oraliq fan bilimlarni aksemulyatsiya va integratsiya qiladi. Ikkinchi tomondan esa uni professional mahoratini paydo bo'lishida maxsus tassavvurlarni ajrata oladi va ishlab chiqadi. Bunday vosita sifatida metodologik tamoyillar chiqadi: falsafiy kategoriyalar va ilmiy tushunchalar bilan operatsiyalar o'tkazish, ob'yektlarni ajratib olish va tadqiqotni predmet va strategiyasini ishlab chiqish, u to'g'risidagi fenomenologiyaning analizi va u to'g'risidagi bilimlar sintezi, konseptual modellarni va akmeologik metodlarni empirik verifikatsiyasida qurish, eksperimental tadqiqotlar va olingan ma'lumotlarni nazariy umumlashtirishni olib